



ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA PSIXOLOGIYAGA OID TIL BIRLIKLARINI O'RGANISHDAGI ASOSIY VOSITALAR

Rakhimova Gulchekhra

gulchekhra.rahimova6665@gmail.com
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch
davlat universiteti
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15209141>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Aprel 2025 yil
Ma'qullandi: 07- Aprel 2025 yil
Nashr qilindi: 14-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

Stress ,depression, optimizm,
psixologik xizmat, eyforiya
,disforiya

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda psixologiyaga oid til birliklarini o'rganishdagi asosiy vositalar haqida so'z boradi. Ingliz va o'zbek tillari psixologik til birliklarini qiyosiy tahlil qilish orqali ikki xalqning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, ilmiy tafakkuri, so'z boyligi o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni aniqlash, shu bilan bir qatorda, yangi ilmiy atamalarni ona tilimizda ifodalash imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kun uchun dolzarb vazifa ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ingliz va o'zbek tillarida psixologiyaga oid til birliklarini shakl va ma'noviy jihatdan o'xshashlik va farqlilik jihatlarini tadqiq qilish jarayonida, ayniqsa, sinonim, antonim, paronim, giponim va omonimlarga alohida e'tibor bilan to'xtalib o'tilgan.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida psixologiya terminlarini taqqoslab o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, turli tillar, jumladan o'zbek va ingliz tillari leksikasi o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganish, psixologik atamalarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, ularning semantik aloqalarini tadqiq etish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib bormoqda. Bu jarayonda turli xil til birliklarini, xususan, atamalarni bosma va elektron lug'atlar shaklida tizimlashtirish, ularning tilga kirib kelishi, madaniyat, mentalitet va diniy qadriyatlar bilan bog'liqligini ochib berish zarur bo'lmoqda.

Ingliz tili bilan taqqoslaganda, psixologiya sohasidagi ko'plab xalqaro terminlar asosan ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashtirilmoqda. Shuning uchun ham ularni o'zbek tilida izchil, ilmiy asoslangan holda tarjima qilish, mos ekvivalentlar topish, milliy tafakkurga yaqin variantlarni tanlash muhim ahamiyatga ega. Bu esa nafaqat ona tilimizning ilmiy salohiyatini oshirishga, balki xalqaro ilmiy muloqotda faol ishtirok etishga ham xizmat qiladi. Shunday ekan, ingliz va o'zbek tillari psixologik terminologiyasini qiyosiy tahlil qilish orqali ikki xalqning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, ilmiy tafakkuri o'rtasidagi farqlar va umumiyliklarni aniqlash, shuningdek, yangi ilmiy atamalarni ona tilimizda ifodalash imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kun uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillarida psixologiyaga oid til birliklarini shakl va ma'noviy jihatdan o'xshashlik va farqlilik jihatlarini tadqiq qilish jarayonida, ayniqsa, sinonim, antonim, paronim va omonimlar alohida e'tibor talab etadi.

Psixologiya terminologiyasida sinonim va antonim atamalar har ikki til – ingliz va o‘zbek tillarida ham muhim o‘rin tutadi. Ingliz tilida ko‘plab psixologik terminlar o‘zaro ma‘nodosh yoki o‘xshash kontekstda qo‘llaniladi. Masalan, psychological counseling – psychological support, autogenic training – relaxation, self-suggestion – self-motivation, brainstorming – idea generation kabi sinonimlar mavjud. Bu terminlar ma‘nodosh bo‘lishiga qaramay, ularning qo‘llanishi kontekstga bog‘liq bo‘ladi: ba‘zilar ko‘proq klinik muhitda, boshqalari esa ta‘lim yoki biznes sohasida qo‘llaniladi. O‘zbek tilida ham bunday sinonim terminlar mavjud: qat‘iy qaror – yechim– qarorga kelish, psixologik xizmat – psixologik yordam, ilhomlanish – ruhlanish kabi.

Ma‘noviy jihatdan bir-biriga qarama-qarshi ma‘nolarni ifodalovchi antonimlar har ikki tilda o‘xshashva farq qiluvchi bir qancha misollar mavjud. Ingliz tilida: optimism – pessimism, introversion – extraversion, euphoria – dysphoria, altruism – egoism, affiliation – isolation, simulation – hypochondria kabi. Bu antonimlar insonning ruhiy holatini va psixologik jarayonlarini qarama-qarshi nuqtalarda tasvirlaydi. O‘zbek tilida esa ushbu tushunchalarning ko‘pchiligi ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima orqali kirib kelmoqda: optimizm – pessimizm, faollik – passivlik, eyforiya– disforiya, altruizm – egoizm va hokazo.

Shunday qilib, ingliz va o‘zbek tillari psixologik terminologiyasida sinonim va antonim atamalar mavjud bo‘lib, ularning qiyosiy tahlili tilga xalqaro ilmiy terminlarni qanday singdirish, tarjima qilish, va ularni milliy madaniyatga moslashtirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Bu esa o‘zbek tilining ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada leksik antonimlarga alohida to‘xtalib o‘tish lozim.

Leksik antonimlar — bu ikki so‘zning ma‘nosi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan terminlar. O‘zbek tilida psixologik terminlar orasida quyidagi leksik antonimlar mavjud:

psixik sog‘lomlik – psixik nevrozlar: psixik sog‘lomlik (mental health) ijobiy holatni anglatadi, bu insonning ruhiy va hissiy jihatdan sog‘lom bo‘lishini ifodalaydi. Psixik nevrozlar (mental neuroses) esa salbiy holatni bildiradi, ya‘ni ruhiy kasalliklar yoki nevrozlar;

g‘ayriixtiyoriy harakatlar – ixtiyoriy harakatlar: g‘ayriixtiyoriy (involuntary) harakatlar insonning ongli ravishda qilmasdan sodir bo‘lgan harakatlarini anglatadi. Ixtiyoriy (voluntary) harakatlar esa ongli ravishda bajarilgan, ixtiyoriy harakatlardir;

muhabbat – nafrat: muhabbat (love) ijobiy va konstruktiv hissiyot bo‘lib, boshqaga nisbatan iliqlik va rahm-shafqatni bildiradi. Nafrat (hatred) esa salbiy his-tuyg‘u bo‘lib, qarama-qarshi nuqtai nazar va salbiy munosabatni ifodalaydi;

uzoq muddatli xotira – qisqa muddatli xotira: uzun muddatli xotira (long-term memory) — bu uzoq muddat davomida saqlanadigan xotira, masalan, bolalikdagi yodgorliklar yoki muhim hayotiy tajribalar. Qisqa muddatli xotira (short-term memory) esa qisqa muddat ichida saqlanadigan va unutiladigan xotiralarni bildiradi.

Inglizcha ekvivalentlarga quyidagilar misol bo‘la oladi: mental health - mental neuroses; involuntary actions - voluntary actions, love – hatred, long-term memory - short-term memory. Leksik antonimlar bilan bir qatorda morfologik antonimlar ham alohida o‘rganilishi zarur. Morfologik antonimlar bir xil ildizga ega bo‘lib, affikslar yordamida qarama-qarshi ma‘nolarni ifodalovchi so‘zlardir. O‘zbek tilida bu turdagi antonimlar ko‘proq affikslar orqali yaratiladi. Misol uchun:

1) odobli – odobsiz

Odobli so'zi ijtimoiy xulq-atvorni, boshqalarga hurmatni bildiradi, adabsiz esa bu sifatning qarama-qarshi, xushmuomalalikdan yiroq holatini anglatadi.

2) adolatli - adolatsiz

Adolatli — adolatli va tenglikni ta'minlovchi holatni anglatadi, adolatsiz esa nohaqlikni bildiradi.

3) aqlli- aqlsiz

Aqlli — aqlli va dono odamni ifodalaydi, aqsiz esa shubhasiz, aqlsiz yoki aqlga ega bo'lmagan holatni bildiradi.

Ingliz tilida yuqoridagi misollarning ekvivalentlari esa quyidagicha: polite – impolite, just – unjust, intelligent - unintelligent

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek tilidagi psixologiya terminlarini ingliz tili bilan solishtirganda, leksik antonimlar, morfoqimik antonimlar, giponimiya, gradiyent semantikalar va omonimlar kabi semantik munosabatlar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni ko'rishimiz mumkin. Leksik antonimlar ikki qarama-qarshi tushuncha o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Morfoqimik antonimlar esa affikslar orqali yaratilgan qarama-qarshi so'zlarni bildiradi. Omonimlar esa bir xil shakldagi so'zlarning turli ma'nolarga ega bo'lishini anglatadi. Bu semantik munosabatlarni tushunish, psixologiya terminlarini to'g'ri va aniq ishlatishda muhimdir

